

**O‘RTA OSIYODA NEOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISH
NATIJALARI (O‘ZBEKISTON HUDUDI MISOLIDA)**

Matyusubova Xurshida Xasanovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

MM101-T-25 1 - kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida O‘rta Osiyo hududida neolit davriga oid arxeologik yodgorliklarning o‘rganilish jarayoni hamda ushbu tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy xulosalar tahlil qilinadi. Bu davrning shaharsozlik madaniyatini o‘rganishda S.P.Tolstov, A.P.Okladnikov, V.M.Masson, YA.G‘ulomov, A.V.Vinogradov, O‘.Islomov, A.Asqarov, A.Muhammadjonov, M.Djuraqulov, E.Bijanov, R.Sulaymonov, M.Qosimov, T.Mirsoatov, V.A.Ranov, V.A.Jukov, A.G.Amosova, A.Yusupov, G.F.Korobkova, T.G.Filimonova, V.V.Timofeev, N.U.Xolmatov, D.M.Djurakulova singari arxeolog olimlarning tadqiqotlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: dehqonchilik, chorvachilik, ibtidoiy jamiyat, o‘troq hayot, moddiy madaniyat.

**ИЗУЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ НЕОЛИТИЧЕСКОЙ ЭПОХИ В
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА)**

Аннотация: В данной исследовательской работе анализируется процесс изучения археологических памятников неолитической эпохи на территории Центральной Азии, а также научные выводы, полученные в результате этих исследований. При изучении градостроительной и культурной традиции данного периода рассматриваются труды таких археологов, как С.П.Толстов, А.П.Окладников, В.М.Массон, Я.Гулямов, А.В.Виноградов, У.Исламов, А.Аскарлов, А.Мухаммаджонов, М.Джуракулов, Э.Бижанов, Р.Сулаймонов, М.Косимов, Т.Мирсоатов, В.А.Ранов, В.А.Жуков, А.Г.Амосова, А.Юсупов, Г.Ф.Коробкова, Т.Г.Филимонова, В.В.Тимофеев, Н.У.Холматов, Д.М.Джуракулова и других.

Ключевые слова: земледелие, скотоводство, первобытное общество, оседлый образ жизни, материальная культура.

**THE STUDY OF NEOLITHIC PERIOD SITES IN CENTRAL ASIA (A CASE
STUDY OF THE TERRITORY OF UZBEKISTAN)**

Abstract: This research paper analyzes the process of studying archaeological sites dating to the Neolithic period in Central Asia and examines the scholarly conclusions drawn from these studies. In exploring the urban development and cultural traditions of this era, the works of archaeologists such as S.P.Tolstov, A.P.Okladnikov, V.M.Masson, Y.Gulyamov, A.V.Vinogradov, U.Islamov, A.Askarov, A.Muhammadjonov, M.Djurakulov,

E.Bijanov, R.Sulaymonov, M.Kasimov, T.Mirsoatov, V.A.Ranov, V.A.Zhukov, A.G.Amosova, A.Yusupov, G. F.Korobkova, T.G.Filimonova, V.V.Timofeev, N.U.Kholmatov, D.M.Djurakulova and others are reviewed.

Keywords: *agriculture, animal husbandry, primitive society, sedentary lifestyle, material culture.*

KIRISH

Bugungi kunda O'rta Osiyo sarhadlarida neolit davrining jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. SamDU arxeologlari O'rta Zarafshon vohasida qator neolit yodgorliklarini topishdi. Surxondaryoda To'da neolit makoni, Quyi Zarafshonda Ayoqag'itma neolit yodgorligi tadqiq etildi. Neolit yodgorliklari tadqiqotida xususan, O'zbekistonda O'zbekiston Rossiya, O'zbekiston-Fransiya, O'zbekiston-Polsha, O'zbekiston-Yaponiya kabi hamkorlikdagi yirik xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar faoliyat ko'rsatib, izlanishlarda zamonaviy usullar, texnika, asbob-uskunalar qo'llanilmoqda. Mazkur tadqiqotlar davrning paleoekologik, paleogeografik, iqlimiy sharoitlari, inson va tabiat o'zaro aloqalari masalasida shuningdek, neolit davri jamoalari ijtimoiy tuzumi, kundalik turmush tarzi, mashg'ulotlari, diniy e'tiqodlari, san'ati, turar joylari, madaniyatlar kelib chiqishi ildizlari, jamoalar qo'ni-qo'shnichilik aloqalari to'g'risida qimmatli ilmiy ma'lumotlar beradi [1].

O'zbekiston hududi neolit jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda kaltaminor madaniyatining ham o'ziga xos o'rni bor. Nafaqat O'zbekiston hududi, balki Markaziy Osiyo miqyosida neolit davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari madaniyati ahamiyatli hisoblanadi. Bu madaniyat o'tgan asrning 30-yillari oxirida taniqli arxeolog S.P.Tolstov tomonidan kashf etilgan bo'lib, keyingi yillar davomida A.V.Vinogradov tomonidan atroflicha tadqiq etilgan [2].

Quyi Zarafshon vohasidagi kaltaminor jamoalari madaniyati esa O'.Islomov tomonidan o'rganildi [3]. Mazkur tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Kaltaminor jamoalari nafaqat Amudaryo etagi Oqchadaryo havzasida, balki qo'shni Uzboy, Zarafshon daryosi etaklarining qadimiy o'zanlari, Ustyurt, Qizilqumning ichki hududlari, Janubi-G'arbiy Qozog'iston, Sharqiy Kaspiy, Orolbo'yi, Balxon hamda Mang'ishloq sarhadlariga tarqalishib yashashgan va o'zlariga xos madaniyat yaratishgan. Bunday keng hududlarda yashagan jamoalar madaniyati umumiy nom – Kaltaminor tarixiy madaniy jamoalar madaniyati nomi bilan fanga kirgan. Bu madaniyat tarkibida bir nechta mahalliy xarakterga ega bo'lgan madaniy variantlar mavjud ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan [4].

Kaltaminor madaniyatining asosiy yodgorliklari quyidagilar hisoblanadi: Oqchadaryo havzasi. A.V.Vinogradov tomonidan bu hudud atroflicha o'rganilgan va mavjud kaltaminor yodgorliklari 3 xronologik guruhga bo'lingan: ilk (Jonbos-4, Tolstov, qavat 5, Kunak 19); o'rta (Jonbos 32, qavat 7, Tojiqazg'on va boshq.); so'nggi (Jonbass 5,11, Tojiqazg'on 2,3,6,10 va boshq.). Jonbos-4 yodgorligi – Oqchadaryo havzasida Jonbosqal'a yon taqirida joylashgan. 1939 yili S.P.Tolstov tomonidan ochilib, tadqiq etilgan [5]. Yodgorlikdan qimmatli arxeologik manbalar – turlicha tosh buyumlar, hayvon, parranda, balik suyak

qoldiqlari, sopol buyum parchalari hamda uy-joy qoldiqlari topilib, ahamiyati jihatidan hozirgi kungacha tayanch yodgorlik hisoblanadi. Jumladan, makonda uy-joy qoldig‘i aniqlanib, qaysiki u 24x17 metrli suyri shaklda umumiy hajmi, o‘lchami 320 metr kvadrat bo‘lgan sinchli, cho‘pkari uy bo‘lib, o‘rtasida katta o‘choq, atrofidan esa bir necha mayda o‘choqlar ham qoldig‘i topilib, bu uyda 100-125 kishi, ya‘ni ona urug‘ jamoasi yashagan. Tolstov yodgorligi – Oqchadaryo havzasi Jonbasqala yon taqiri janubiy qismida (Jonbos – 4 yodgorligi past qismida) joylashgan bo‘lib, 1976 yildan e‘tiboran A.V.Vinogradov tomonidan o‘rganilgan [6]. Madaniy qatlami yaxshi saqlangan bo‘lib, undan ko‘plab har xil tosh buyumlar, hayvon, parranda, baliq suyaklari qoldiqlar, sopol buyum parchalari, xullas 12000 dan ortiq ashyolar topilgan. Ayniqsa uchta uy-joy qoldig‘i, hamda xo‘jalik uchastkalari topilishi yodgorlik moddiy madaniyati xususiyatini aniqlashda juda muhim bo‘ldi [7]. Turar joylar tuzilishi jihatidan Jonbos uyiga o‘xshash, lekin bular to‘g‘ri burchakli shaklda, 110-120 kvadrat metrli o‘lchamda taqdim qilingan. Makondan buyumlarning radiouglerod analizi yodgorlikning absolyut sanasini aniqlashda muhim bo‘ldi. Qizilqum ichki hududlari 1965-1972 yillar mobaynida kompleks ravishda Lavlakan, Qaraqata, Beshbuloq, Mingbuloq cho‘kmasi o‘rganilib, mingdan ortiq ibtidoiy makonlar topilgan. A.V.Vinogradov arxeologik manbalarni ilmiy tahlil etib, ularni uchta xronologik bosqichga ajratdi:

1. Mezolit – ilk neolit. Bu makonlardan unchalik katta bo‘lmagan, mezolit an‘anaviy uslublarni mujassamlashtirgan tosh buyumlar kolleksiyasi topilgan

2. (neolit 1). Ilk neolit- bu yodgorliklarda geometrik shakldagi qurollar nisbatan ko‘p emas, kaltaminar tipidagi o‘q yoy uchlari umuman uchratilmagan.

3. (Neolit II) O‘rta (rivojlangan) va neolitning so‘nggi bosqichlari – kaltaminar tipidagi o‘q yoylari juda ko‘plab uchraydi. Eng muhimi bu mintaqada madaniy qatlami qisman saqlangan Lavlakan-26 makonining topilishi ahamiyatli bo‘ldi.

Lavlakan botiqligida joylashgan bo‘lib, 1965-1972 yillar mobaynida A.V.Vinogradov tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Madaniy qatlamdan arxeologik manbalar topilishi bilan birgalikda uy-joy qoldig‘i ham aniqlangan. Bu sinchli (cho‘pkari) tarzdagi uy bo‘lib, madaniy qatlam qisman buzilganligi tufayli to‘laligicha uning shakli va o‘lchami aniqlanmagan. Quyi Zarafshon vohasi. Mavjud uchta qadimiy o‘zanlar (shimoliy, o‘rta, janubiy)da topilgan ibtidoiy makonlar aksariyatida madaniy qatlam saqlanmagan.

Oyoqag‘itma makoni- quyi Zarafshon qadimiy shimoliy o‘zani tarkibiy qismi hisoblanuvchi Oyoqagitma xavzasi sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, 1995 -2005-yillari O‘zbekiston – Polsha, 2005-2012 yillari O‘zbekiston-Fransiya xalqaro qo‘shma arxeologik ekspeditsiyalari tomonidan tadqiq etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar O‘rta Osiyo sarhadlarida tosh asri taraqqiyotida neolit davri mustaqil tarixiy davr sifatida bo‘lganligi va jamoalar o‘ziga xos madaniyat yaratishganligiga to‘liq ilmiy asos beradi. Ayni kunda, Janubiy Turkmanistonda Joyitun, Tojikiston sarhadlarida Hisor, Amudaryo va Zarafshon daryosi quyi oqimlari va Qizilqumda Kaltaminor, Farg‘ona vodiysida Markaziy Farg‘ona, O‘rta

20-Yanvar, 2026-yil

Zarafshon vohasida Sazog'on, Ustyurt platosida Ustyurt neolit jamoalarining madaniyati tadqiqotiga erishilgan. Bu neolit davri jamoalari madaniyatlarining genezisi keyingi yillar tadqiqoti natijalariga ko'ra mahalliy tarixiy ildizlarga ega bo'lganligi va avtohton xarakter kasb etganligi manbalarda o'z tasdig'ini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Xolmatov. “O'rta Osiyo arxeologiyasi: Tosh, eneolit va bronza davri”. Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.
2. Виноградова Н.М., Пянкова Л.Т. Работы в Гиссарской долине // АО, 1977. – Москва, 1978.
3. Islamov U. Сенсационные археологические находки в Узбекистане// O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2004. №3.
4. R.Ibragimov. “ARXELOGIYA”. – Toshkent, 2022.
5. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., «Изд. Академия наук», 1948.
6. Vinogradov A.V. «Neoliticheskie pamyatniki Xorezma». – Moskva, 1968.
7. Vinogradov A.V. Drevnie oхotniki i rybolovy Sredneaziatskogo Mejdurechya. Izd-vo Nauka, – M., 1981.